

PEDAGOGIK MADANIYAT VA UNING MUHIM SHARTLARI

Nazimov Raxmatilla Normuradovich

O‘R QK Kichik mutaxassislar tayyorlash Markazi,
Qurollanish va otish sikli katta o‘qituvchisi, Qurolli Kuchlar xizmatchisi.

nazimovrahmat@gmail.com, telefon:(93)7221570

Annotatsiya: Madaniyat haqida so‘z yuritar ekanmiz, uning murakkab va ko‘p qirrali ma‘naviy-ijtimoiy hodisa ekanligini, jamiyatda inson turmushi va uning har tomonlama faoliyatini aks ettirishini ta‘kidlab utish muhimdir. Ushbu maqolada pedagogik madaniyatning mohiyati, tarkibiy qismlari va uning muhim shartlari to‘g‘risidagi fikrlar yoritilib berilgan.

Kalit so‘zlar: Pedagogik madaniyat, madaniyat, ma‘naviy madaniyat, moddiy madaniyat, yaratuvchanlik, san‘at, axloq, inson faoliyati, shaxs madaniyati, siyosiy madaniyat, xulq madaniyati, estetik madaniyat.

Аннотация: Говоря о культуре, важно подчеркнуть, что это сложное и многообразное духовное и социальное явление, отражающее жизнь человека и его всестороннюю деятельность в обществе.

В данной статье освещаются сущность, компоненты и важные условия педагогической культуры.

Ключевые слова: Педагогическая культура, культура, духовная культура, материальная культура, творчество, искусство, этика, человеческая деятельность, культура личности, политическая культура, поведенческая культура, эстетическая культура.

Abstract: Speaking about culture, it is important to emphasize that this is a complex and diverse spiritual and social phenomenon that reflects a person’s life and his comprehensive activities in society.

This article highlights the essence, components and important conditions of pedagogical culture.

Key words: Pedagogical culture, culture, spiritual culture, material culture, creativity, art, ethics, human activity, personal culture, political culture, behavioral culture, aesthetic culture.

KIRISH: Mamlakatni har tomonlama rivojlantirish, yuksaltirish bo‘yicha belgilangan masalalarni muvaffaqiyatli hal qilishning muhim shartlaridan biri xalqning ma‘naviy, ma‘rifiy va madaniy saviyasini o‘stirish hisoblanadi. Chunki xalqning, jamiyatning har bir a‘zosining ma‘naviy, ma‘rifiy va madaniy saviyasi qanchalik yuqori bo‘lsa, kadrlar salohiyati shuncha baland bo‘ladi, xalqning turmush darajasi oshadi.

Kelajak avlodga ta‘lim va tarbiya berish jarayonining samaradorligini oshirishda o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi bilan bir qatorda ularning pedagogik madaniyati ham juda muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik madaniyatning mohiyati va mazmuni hozircha yetarli tadqiq qilinmagan, adabiyotlarda ham bu muammoga aniq yondashuv kuzatilmaydi. Shu bilan birga, so‘nggi yillarda ta‘lim muassasalari amaliyotida pedagogik madaniyatga qiziqish ortib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida, ta‘lim-tarbiya jarayonining nafaqat mutaxassislarni yuqori saviyali yetuk darajasida tayyorlash masalalariga, balki uning ma‘naviy-axloqiy, madaniy negizlariga, shu bilan birga pedagoglarning kasbiy salohiyatiga ham e‘tiborning ortib borayotganligidan dalolat beradi.

Hozirgi davrda pedagogika nazariyasi va amaliyotida yuz berayotgan innovatsion jarayonlar o‘qituvchining pedagogik tayyorgarligi saviyasi bilan birga, uning kasbiy madaniyati darajasiga ham yuksak talablar qo‘ymoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA:

Pedagogik madaniyat to'g'risida tushuncha.

Madaniyat tushunchasi juda keng qamrovli tushunchadir, tabiiyki, adabiyotlarda bu tushunchaga yagona ta'rifni topish juda qiyin.

Quyida «madaniyat» tushunchasiga berilgan ta'riflarning bir nechtasini keltiramiz.

Madaniyat – jamiyat, insonning ijodiy kuch va qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi. Kishilar hayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma'naviy boyliklarda ifodalanadi».¹

Madaniyat (arab. – madinalik, shaharlik, ta'lim-tarbiya ko'rgan) – tabiat va o'zaro munosabatlarda aks etadigan inson faoliyatining o'ziga xos usuli. Madaniyat alohida individning hayot faoliyati (shaxsiy madaniyat), ijtimoiy guruhning yoki jamiyatning hayot faoliyati usulini aks ettiradi.

Manadiyat – rus tilida «kultura» iborasi bilan atalib, (lotinchada cultura – «ishlov berish», «yetishtirish» ma'nosini anglatadi), insoniyat tomonidan ijtimoiy-tarixiy amaliyoti jarayonidan yaratilgan va yaratilayotgan, jamiyatning rivojlanishdagi tarixiy erishilgan darajasini ifoda etuvchi moddiy-ma'naviy qadriyatlari to'plamidan iborat bo'ladi.

Demak, madaniyat, birinchidan, insonning maqsadli ravishda tabiatga ta'siri, ikkinchidan, insonning ma'lum muhitda tarbiyalanishi, ta'lim olishi demakdir.

Pedagogik madaniyat – pedagogik tushunchalar va mahorat, pedagogik axloq va kasbiy-pedagogik xislatlar, pedagogning ish uslubi va o'z faoliyatiga munosabatlari yig'indisidir. Pedagogik madaniyatning namoyon bo'lishi va uning qadriyatga, turmush tarziga aylanishi uchun insondan yuqori kasbiy salohiyat, ma'naviy, ma'rifiy va axloqiy barkamollik talab qilinadi.

Pedagogik madaniyat murakkab tuzilishga ega bo'lib, quyidagi tarkibiy qismlardan iboratdir:

pedagogik yo'nalganlik (pedagogik faoliyatga moyillik, qat'iy pedagogik ishonch, bo'ysunuvchilarga hurmat, g'amxo'rlik va shu kabilar);

keng dunyoqarash; yuksak axloqiylik;

bilimdonlik, zukkolik va ziyolilik;

pedagogik mahorat;

ta'lim-tarbiya ishlarini ilmiy izlanishlar bilan uyg'unlashtira olish qobiliyati;

yuksak muomala madaniyati, so'zlashish odobi;

o'ziga nisbatan talabchanlik, izlanuvchanlik, kasbiy mahorati va bilimi saviyasini oshirib borishga doimiy ehtiyoj va hokazo.

Pedagogik madaniyatning sanab o'tilgan tarkibiy qismlari o'zaro bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldirib, rivojlantirib boradi va pedagogik faoliyat jarayonida yagona tizimda namoyon bo'ladi.

Pedagogikada madaniyat deganda shaxsning xatti-harakatlardagi ma'naviy imkoniyatlari tushuniladi. Shunga ko'ra, shaxs madaniyati – bu shaxsning madaniyat talablariga asoslangan bilim, ko'nikma va malakalari hamda ularga kundalik hayotda amal qilishi zarur bo'ladi.

¹ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2003, 5-jild. – 372-bet.

Pedagogik madaniyatning alohida komponentlari shaxs psixologik xususiyatlariga (yoʻnalganlik, temperament, xarakter, qobiliyat) qarab oʻziga xos koʻrinishga ega boʻlib, pedagog shaxsining individual portretini hosil qilishi mumkin. Bu shundan dalolat beradiki, umumiy xususiyatlar bilan birga har bir pedagogning kasbiy madaniyati oʻziga xoslik, individullik va betakrorlikka ega boʻladi.

NATIJA VA MUHOKAMA: Pedagogik madaniyatda pedagogik yoʻnalganlik alohida oʻrin egallaydi. Pedagogik madaniyatning atrofida pedagogning kasbiy ahamiyatga ega boʻlgan asosiy xususiyatlari mujassamlashadi.

Pedagogik yoʻnalganlik – pedagogik kasbga ishtiyoq, pedagogik mehnatga layoqat kabi tushunchalarni oʻz ichiga oladi va bular pedagogning hayotiy ehtiyoji va yashash tarziga aylanadi.

Pedagogik tafakkur madaniyati – pedagogik tahlil sintes qobiliyatlarning rivojlanganligi mushohada qilish, tanqidiylik, mustaqillik, kuzatuvchanlikning kengligi, faolligi, tezligi, pedagogik xotira, ijobiy tasavvur kabilarni oʻziga mujasamlashtiradi. Oʻqituvchining tafakkur madaniyati uning nutq madaniyati bilan bogʻliq agar uning soʻz boyligi kam boʻlsa oʻz fikrlarni aniq qisqa va loʻnda bayon eta olmaydi. Oʻquv materialini yetkazish va tarbiyalashda qiynaladi. Oʻqituvchining dunyo qarashi uning oʻy fikrlari va his tuygʻularini ahloqiy sifatleri va oʻz mehnati natijasi uchun fuqarolik masʼuliyatini ifodalaydi. Aynan dunyo qarash madaniyatida pedagogik xulosalar shakllanganlik jarayoni va natijasi ifodalanadi, shaxsiy qiziqishlar, qadriyatlar aniqlanadi.

Pedagogik hisiyot madaniyati – oʻquvchilarga nisbatan xayrixoh munosabatda boʻlish ularning kayfiyatini his etish, psixologiyasini tushunish koʻnikmalarda namoyon boʻladi. Pedagogik takd – bu bir vaqtning oʻzida ham meyor hisi ham taʼsir darajasi ham nazorat qila olish koʻnikmasi va zarur boʻlganda bir vositani boshqasi bilan muvozanatga keltirish hamdir.

Pedagogik muloqot – madaniyati eshitish va suxbatdoshni tinglash savol bera olish, aloqa oʻrnatish, boshqa kishini tushunish, pedagogik vaziyatlarda yoʻl topa olish koʻnikmalarida ifodalanadi.

Pedagogning ish oʻrni madaniyati – uning ish vaqti va shaxsiy vaqtini tashkil eta olishda hujjatlar bilan, adabiy manbalar bilan ishlay olishi, zarur axborotlarni belgilash, qayta ishlash, uni tanlash va saqlash koʻnikmalarini nazarga tutadi. Pedagogik madaniyatning muhim komponentlardan biri pedagogik mahoratdir.

Pedagogik mahorat – bu rivojlangan psixologik – pedagogik tafakkur, pedagogik bilimlar, koʻnikmalar, malakalar va hissiy irodaviy ifodalangan vositalar tizimi boʻlib pedagog shaxsining yuksak rivojlangan shaxsiy sifatleri bilan birgalikda unga oʻquv tarbiyaviy topshiriqlarni hal etish uchun yordam beradi. Pedagogik mahoratning markaziy komponenti rivojlangan psixologik pedagogik tafakkur boʻlib, u pedagogik faoliyatdagi ijorkorlikka asoslanadi. Mahoratli pedagog tafakkuri, mustaqilligi, egiluvchanligi va tezligi bilan ajralib turadi.

Pedagogik ijodkorlik – pedagogik jarayonda har doim yangi va asoslangan taʼlim – tarbiyaning turli metod va shakllarni qoʻllay olish, kasbiy bilim va shaxsiy sifatlarda namoyon boʻladi. Shuningdek pedagogik gʻoyalarni anglash, oʻquv tarbiya faoliyati usullari noanʼnaviy topshiriqlarni yecha olish koʻnikmalarida ham ifodalanadi.

Pedagogik optimizm – bu oʻz kuchi va qobiliyatiga ishonish va oʻquvchilarning qobiliyatlari hamda imkoniyatlariga, yuqori oʻquv va kasbiy natijalariga erishishga ishonish.

Pedagogik texnika – pedagogik mahorat tarkibida alohida oʻrin egallaydi. Bu oʻqituvchi uchun zarur boʻlgan bilim, koʻnikma va malakalar metod va vositalar majmui boʻlib ular yordamida alohida oʻquvchi va butun jamoaga samarali pedagogik taʼsir koʻrsatish: toʻgʻri uslub va muloqot ohangini tanlay olish oʻz munosabatini ifodalash meyorini diqqat va his tuygʻularni boshqarish kabilarda namoyon boʻladi.

XULOSA:Xulosa qilib aytganda pedagogik madaniyat komponentlari orasida murakkab bog‘liqliklar mavjud bo‘lib ular shaxsning psixologik xususiyatlari va unda o‘qituvchining shaxs va mutaxassis shakllanishi mujassamlashadi. Pedagogik madaniyati egallash murakkab va uzoq davom etadigan jarayon. Pedagogik madaniyat elementlari maktabda oilada shakllana boshlanadi.

Pedagogik madaniyatning takomillanishuvi kasbiy faoliyat va butun hayoti mobaynida davom etadi. Pedagogning o‘z kasbiy faoliyatini qanchalik mahorat bilan amalga oshirishida uning ta‘lim oluvchilar haqidagi, ularning psixologiyasi to‘g‘risidagi, ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmuni, metodlari xaqidagi keng bilimlar alohida ahamiyatga ega. Bu bilimlar umumiy pedagogik madaniyatni tashkil etadi, o‘qituvchi bu madaniyatni egallamasa, hech qachon o‘z ishining chinakam ustasi bo‘la olmaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug‘at. – T.: Sharq, 2009. – 560 b.
2. Ochilov M. Muallim – qalb me‘mori. – T.: O‘qituvchi, 2001. – 430 b.
3. Ochilov M., Ochilova N. O‘qituvchi odobi. – T.: O‘qituvchi, 1997. – 136 b.
4. Psixologiya i pedagogika. / Pod red. Radugina A. A. – Moskva: Sentr, 2003. – 256 str.
5. Satib-Aldiyev A. Muloqotni tashkil etishning psixologik-pedagogik shartlari. // O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: TOUQBY, 2012. – 39 b.
6. Satib-Aldiyev A. Pedagogik atamalar izohli lug‘ati. // O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: TOUQBY, 2011. – 73 b.
7. B. Ma‘murov. Umumiy pedagogika// Barcha ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun darslik: – Toshkent 2020 118 b.